SJIF: 5.104 ISSN ONLINE: 2769-996X

AN AMERICAN SCIENTIFIC JOURNAL

Zien Journal of Social Sciences and Humanities

VOLUME 5, FEBRUARY, 2022

HTTPS://ZIENJOURNALS.COM 5700 TENNYSON PARKWAY, SUITE 300, PLANO, TEXAS 75024

12. The role of the spiritual environment in building civil society

51-53

Sayitmurodova Feruza, Safarova N.O

13. The Stages of Development of the Role of Women in Uzbekistan in the New Era

54-57

Ashurova Sanobar Yuldashevna

14. Peculiarities of Women's Activities in the Field of Non-Manufacturing

58-60

Nafisa Abduxalilova Shonazarovna, Kalanova Sabohat Muradovna

15. The main features of the formation of a sense of patriotism in the family in students

61-63

Rakhmonov Azamat Ruzvonovich

16. Inclusive Art Education of Uzbekistan in the Period of Independence

64-68

Egamberdiyev Murod Farhod ogli

17. The Importance and Practice of Phraseological Units in Our Lives

69-70

Tajiboyeva Fotimaxon Vohidjon qizi

ISSN NO: 2769-996X
Date of Publication: 17-02-2022

The Stages Of Development Of The Role Of Women In Uzbekistan In The New Era

Ashurova Sanobar Yuldashevna
The Republic of Uzbekistan Ministry of Preschool Education,
Head of Department, Ph.D., Professor

Annotation: This article deals with the creation of a single electronic database (online web portal) aimed at improving entrepreneurial literacy and self-employment of young people and women, which includes measures, laws and regulations on this topic, decisions, initiatives

Key words: Women, entrepreneurship, supply, young generation, literacy, development, women

Xotin-qizlar misolida olib qaraydigan bo'lsak, doimiy daromad manbaini yaratish deganda, albatta, ularni ish bilan ta'minlash nazarda tutiladi. Bu borada Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi bilan faol hamkorligimiz yo'lga qo'yilgan bo'lib, o'tgan davr mobaynida xotin-qizlar uchun respublikada jami 170 mingga yaqin ish o'rni yaratildi. 2020-yilda 234,8 ming ayolga bandlik xizmatlari ko'rsatilib, 54,8 ming nafari ishga joylashtirilgan bo'lsa, joriy yilning shu davriga qadar yana 76 198 nafar xotin-qizning bandligi ta'minlandi.

Ayni paytda respublika bo'yicha jami 432,7 ming nafar xotin-qiz "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, mehnat organlari orqali ulardan 167,6 ming nafarining bandligiga ko'maklashish vazifasi belgilangan. Jarayonda xotin-qizlarning talab-istaklari asosida 50 ming nafarini korxonalardagi mavjud bo'sh (vakant) hamda zaxiralangan ish joylariga joylashtirish, 45,4 ming nafarini haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish, 8,4 ming ayolga subsidiyalar ajratish orqali o'zini-o'zi band qilishi hamda 36,4 ming vakilalarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nimaklariga o'qitish orqali bandligiga ko'maklashish ishlari olib boriladi.

Yana bir ahamiyatli jihati, yurtimizda xotin-qizlarning kasb ko'nikmalarini mustahkamlash, hayotda munosib o'rin egallashi, ularni doimiy ish bilan band qilish maqsadida joylarda sendvich va boshqa arzon hamda qulay materiallardan tezkorlik bilan tikuvchilik korxonalarini qurish ham tadbirkorlar orasida ommalashib bormoqda. Shu kunga qadar 200 ga yaqin ana shunday korxonalar tashkil etilib, ularga 4 100 nafardan ortiq xotin-qiz ishga joylashdi. Shuningdek, 75 ta tumanda 111 ta tikuv-trikotaj ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilib, ularda jami 35 ming nafar yosh xotin-qizning bandligi ta'minlandi. Mazkur korxonalarga, ayniqsa, Namangan, Farg'ona, Andijon viloyatlari hamda Toshkent viloyatida talab katta.

Yuqorida aytib o'tilgan keyingi yo'nalish — inson kapitali sifatini oshirishda kambag'al aholini qo'llab-quvvatlashning imtiyozli kreditlar va to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordam berish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va kasb-hunarga o'qitish singari mexanizmlariga urg'u berilmoqda. Bunda barcha hududlarda kasb va hunarga o'qitishda monomarkazlarni tashkil etish, ustoz-shogird an'anasini tiklash va kengayishini rag'batlantirish, "World skills" standartlarini amaliyotga joriy etish, o'qitishda nodavlat va notijorat tashkilotlari hamda xususiy sektorni keng jalb etish ishlariga katta e'tibor qaratilyapti. Xotin-qizlar orasida ham qiziqish ortib borayotgan yo'nalishlardan biri — biznes va tadbirkorlik ko'nikmalari bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etish qamrov darajasi oshirilmoqda.

Bugungi kunda respublika bo'yicha 15 ta "Ishga marxamat" monomarkazlari, 30 ta shahar va tumanda kasb-hunarga o'qitish markazi, 136 ta MFYning har barida o'quv maskani tashkil etilgan. 2016-yilda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida bor-yo'g'i 2 ta o'quv markazi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 181 taga etdi. O'quv kurslarida 16 dan to pensiya yoshigacha bo'lgan yoshdagi ish bilan band bo'lmagan fuqarolar o'qishi mumkin. Ular o'rnatilgan tartibda mehnat idoralariga ish qidirayotgan yoki ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tgach, mutaxassisligi bo'yicha maqbul ish mavjud bo'lmagan hollarda, yo'llanmaga asosan o'quv kurslariga jalb etiladi.

Ushbu o'quv muassasalarida 40 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yilgan. O'qish muddati 1 oydan 6 oygacha davom etadi. "Ishga marhamat" monomarkazlari hamda kasb-hunarga o'qitish markazlari bitiruvchilariga Prezidentimizning 2020-yil 11-avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni

ISSN NO: 2769-996X
Date of Publication: 17-02-2022

tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, o'qishni tamomlaganligini tasdiqlovchi hujjat va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi diplomi darajasiga tenglashtirilgan "Skills pasport" beriladi. Bu "pasport" kurslar tinglovchilariga egallagan bilimlarini mehnat faoliyatida amalga oshirish huquqini bersa-da, ko'proq ta'limning keyingi turini davom ettirish uchun asos hisoblanadi. O'quv kursini tamomlaganlik to'g'risidagi sertifikat esa respublika hududidagi barcha ish beruvchi korxona va tashkilotlarda xodimning mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradi.

Ehtiyojmand xotin-qizlarni o'qitishda bir qator imtiyozlar berilib, zarur hollarda o'qish davrida stipendiya bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari, bandlikka ko'maklashish markazlari tomonidan bitiruvchilarning egallangan mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashishi, tadbirkorlik qilishi yoki o'zini-o'zi band etish maqsadida subsidiya olishida amaliy ko'mak ko'rsatilyapti. Bugungi kunda 61 260 nafar fuqarolar kasb-hunarga o'qitishga jalb qilingan bo'lib, shundan vazirlik tasarrufidagi o'quv markazlarida 17 303 nafar, boshqa davlat ta'lim muassasalarida 30 504 nafar, nodavlat ta'lim muassasalarida 5 162 nafar, usta-shogird an'anasi buyicha 8 291 nafar ish bilan band bo'lmagan fuqarolar kasb-hanar va tadbirkorlikka o'qitilmoqda. Shundan 39 ming nafarini xotin-qizlar tashkil etadi.

Yana bir yangilik, Prezidentimiz tomonidan "ijtimoiy shartnoma" tajribasini keng qo'llash, bunda, avvalo, fuqaro kasb o'rganishi, ishga joylashishi, o'zini-o'zi band qilishi uchun davlat tomonidan moddiy va ijtimoiy ko'mak ko'rsatilishi bo'yicha topshiriqlar berilgan edi. Ana shu topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-apreldagi "Davlat mablag'lari hisobidan band bo'lmagan aholiga berilayotgan subsidiya, grant, nafaqa va boshqa to'lovlarning maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, shu yil 1-maydan 28 ta tanlangan tuman (shahar)da tajriba-sinov tariqasida davlat mablag'lari hisobidan subsidiya, grant, nafaqa va boshqa to'lovlar ajratilgan ishsiz fuqarolar, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan band bo'lmagan aholi bilan mahalliy mehnat organlari o'rtasida ajratilayotgan mablag'larning maqsadli ishlatilishi va bu borada taraflarning ijtimoiy mas'uliyatini belgilovchi ijtimoiy kontrakt tuzish amaliyoti joriy etilmoqda. Ushbu tuman (shahar)larda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining jami 26,9 milliard so'm mablag'lari subsidiya, grant va nafaqalar uchun sarflanishi rejalashtirilgan.

Bugun ayrim ogʻziga kuchi yetmaganlar "yana maʼnaviyatmi", "maʼnaviyatchilar jonga tegdi", "ularning targʻibotisiz ham yashasa boʻlaveradi" singari, mohiyat-maqsadiga koʻra nihoyatda xatarli xitoblarni har qancha baland ovozda, ogʻzidan koʻpik sachratib maydonga otishmasin, mana shu millionlar bilan – siz bilan bizning bolalarimiz, aka-ukalarimiz, ota-onalarimiz bilan kimdir yurakdan suhbatlashmogʻi, yoniga borib ularning dardi-dunyosi bilan qiziqmogʻi kerak.

Hamma gap oʻsha muloqotlarning qanchalar samimiy, amaliy, foydali boʻlmogʻida, buning uchun esa maʼnaviyat sohasi mutaxassislarining ilmi chuqur, vijdoni pok, insoniy salohiyati yuksakligida qolyapti. Joriy yilning o'zida 253,2 ming ayolning ijtimoiy himoyaga muhtoj, shundan 131,2 ming nafari ish bilan band etish va 36,4 ming nafari kasb-hunarga o'qitishga, 69,9 ming nafari kredit olish, 15,7 ming nafarining kasanachilik va tomorqada band etishga ehtiyoji borligi aniqlanib, "Ayollar daftari"ga kiritildi. Mehnat bozoridagi 8 ta eng muhim yo'nalish belgilab olinib, bugungi kunga qadar ularning 77,8 ming nafariga bandlik xizmatlari ko'rsatildi. Shulardan 21,2 ming ayol ishga joylashtirilib, 16,2 ming nafari jamoat ishlariga jalb qilingan bo'lsa, qolganlari kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Ular orasida 4,8 ming ayolga ishsizlik nafaqasi tayinlandi va to'lab berildi. Bu tizimdan ko'zlangan maqsad xotin-qizlarga faqat moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish emas, balki ularni ishga joylashtirish orqali doimiy daromad manbai bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirishdan iborat.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining ta'rifiga ko'ra, kambag'allik — bu insonning asosiy ehtiyojlari, jumladan, oziq-ovqat, toza ichimlik suv, sanitariya inshootlari, sog'liqni saqlash, turar joy, ta'lim xizmatlari bilan bog'liq ehtiyojlarini to'laqonli qondira olmaslik holati hisoblanadi. Bunda nafaqat daromad, balki ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati ham nazarda tutiladi. Ya'ni tirikchilik uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarni qondirishga etarli daromadi bo'lmagan, og'ir kasallikka chalingan, ishsiz aholini kambag'al deyishimiz mumkin.

So'nggi yillarda xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalash, ularni kasb-hunarga o'qitib, bandligini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada mahalla darajasigacha yuritiladigan vertikal tizim

ISSN NO: 2769-996X
Date of Publication: 17-02-2022

yaratildi. Xotin-qizlar masalalari bo'yicha har bir mahallada alohida rais o'rinbosari, tumanda mahalla va oila bo'limi boshlig'i o'rinbosari hamda 2 nafar mutaxassisi, viloyatda esa 8 nafargacha shtat birligi berildi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 8-oktyabrda jamiyatda ayollar va yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi tashabbusi bilan xotin-qizlar masalalari bo'yicha yangi ish tizimi — har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida "Ayollar daftari" joriy etildi.

Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 13-oktabrda "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Endilikda ushbu qarorga muvofiq, yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning quyidagi tartiblari joriy etiladi:

Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi va Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan tashkil etilgan o'quv kurslarini tamomlagan har bir bitiruvchi uchun kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlariga sarflangan xarajatlarning 70 foizi, biroq har bir bitiruvchiga 1 million so'mdan ortiq bo'lmagan miqdori davlat tomonidan kompensatsiya qilinadi;

Ushbu kurslarni muvaffaqiyatli tamomlab, sertifikat olgan shaxslarga o'z biznesini tashkil etish uchun bank tomonidan mikrokredit ajratiladi.

"Mikrokreditbank" ATB tomonidan nodavlat ta'lim tashkilotlari maxsus sertifikatini olgan, tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlarga o'z biznesini tashkil etish uchun 33 million so'mgacha mikrokreditlar ta'minotsiz ajratiladi.

Shuningdek, mikrofirma va kichik korxona ta'sis etgan shaxslarga uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polislari, kredit hisobiga sotib olinayotgan mol-mulklar garovi, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining kafilligi asosida 225 million so'mgacha mikrokreditlar ajratiladi. Bunda mikrokreditlar 3 yil muddatgacha 6 oygacha imtiyozli davr bilan Markaziy bankning asosiy stavkasida ajratiladi.

2021-yil 1-yanvarga qadar "Mikrokreditbank"ning aholini, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish bo'yicha yangi biznes modeli ishlab chiqiladi.

Mikrokreditbank tadbirkorlarning, xususan, ishbilarmon yoshlar va xotin-qizlarning mana shunday orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish yo'lida bor imkoniyatlarni ishga solmoqda. Muhimi, buning natijasida ishsizlar ishli bo'lib, ro'zg'orlarga baraka kirmoqda, odamlarning ishbilarmonlik qobiliyati yuzaga chiqayapti

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Vaxobov A.V., Xojibakiev Sh.X., Mo'minov N.G. "Xorijiy investitsiyalar". O'quv qo'llanma.- T.: Moliya, 2010.-328 b.
2. Вахабов А.В., Разыкова Г.Х., Хажибакиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Монография. Т.: Молия, 2011.-300 с.
3. Bekmurodov A.Sh., Karrieva Ya.K., Ne'matov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. –T.:Iqtisodiyot, 2010.-166 b.
4. Mamatov B., Xujamkulov D., Nurbekov O. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 608 b.
5. Kayumov R.I., Xojimatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: TDIU, 2010. - 496 b.
6. Karlibaeva R. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: O'quv qo'llanma. - T.: Cho'lpon, 2011.-124 b.
7. Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. T.: "Extremum-press", 2013.-176 b.
8. Toshov O. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish. T.: "Akademnashr", 2012.-165 b.
9. Хазанович Э.С. Иностранные инвестиции: Учебное пособие/ Э.С.Хазанович.2-е изд., стер.- М.:КНОРУС, 2011.-312с.